SURUNKALI ODONTOGEN GAYMORITLARNI OLDINI OLISH VA DORI VOSITALARI BILAN DAVOLASHNING NATIYJAVIYLIGI

Abdullayeva Nigora Nusratovna,
Ergashev Ulug'bek Muradovich
Jumanov Davlat Azatbekovich,
Qobulxo'jayev Yorqin Erkin o'g'li
Toshkent tibbiyot akademiyasi

Annotatsiya. *Surunkali sinusit barcha surunkali LOR kasalliklari orasida birinchi o'rinda turadi. Surunkali odontogen gaymorit — bu yuqori jag' tishlarining yallig'lanishidan kelib chiqadigan yuqori jag' (gaymor) bo'shlig'i yallig'lanishidir. Bu holatning oldini olish juda muhimdir. Surunkali yallig'lanish odatda qaytalanayotgan o'tkir jarayon fonida rivojlanadi. Xalqaro klassifikatsiyaga ko'ra, agar yallig'lanish 3 oydan ortiq davom etsa, u surunkali hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *odontogen gaymorit, yuqori jag', tish, antibiotik, surunkali.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОНСЕРВАТИВНОГО ЛЕЧЕНИЯ И ПРОФИЛАКТИКИ ХРОНИЧЕСКОГО ОДОНТОГЕННОГО ГАЙМОРИТА

Абдуллаева Нигора Нусратовна,
Эргашев Улугбек Мурадович
Джуманов Давлат Азатбекович,
Кобулходжаев Ёркын Эркинрвич
Ташкентская медицинская академия

Аннотация. *Хронический синусит занимает первое место среди всех хронических заболеваний ЛОР-органов. Хронический одонтогенный гайморит — воспаление полости верхней челюсти (гайморит), вызванное воспалением зубов верхней челюсти. Профилактика этого состояния имеет большое значение. Хроническое воспаление обычно развивается на фоне рецидивирующего острого процесса. Согласно Международной классификации, если воспаление сохраняется более 3 месяцев, оно считается хроническим.*

Ключевые слова: *одонтогенный синусит, верхнечелюстной, зуб, антибиотик, хронический.*

EFFECTIVENESS MEDICAL TREATMENT AND PREVENTION OF CHRONIC ODONTOGENOUS SINUSITIS

Abdullaeva Nigora Nusratovna,
Ergashev Ulugbek Muradovich
Jumanov Davlat Azatbekovich,
Kobulkhodjaev Yorkyn son of Erkin
Tashkent Medical Academy

Abstract. *Chronic sinusitis ranks first among all chronic ENT diseases. Chronic odontogenic gaimoritis is an inflammation of the upper jaw (gaimor) cavity caused by inflammation of the upper jaw teeth. Prevention of this condition is very important. Chronic inflammation usually develops against the background of a recurrent acute process. According to the International Classification, if inflammation persists for more than 3 months, it is considered chronic.*

Keywords: *odontogenic sinusitis, maxillary, tooth, antibiotic, chronic.*

Hozirgi kunda, amaliyotda eng maqbul bo‘lgan tasnif B.S. Preobrajenskiy tomonidan taklif etilgan modifikatsiyalangan klassifikatsiyadir. Unga ko‘ra, burun atrofidagi bo‘shliqlarda yallig‘lanish quyidagi shakllarga bo‘linadi: ekssudativ, produktiv, alterativ, aralash, vazomotor va allergik.

Yuqori jag‘dagi tish kasalliklari yuqori jag‘ bo‘shlig‘idagi surunkali yallig‘lanishning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Odontogen gaymorit — bu yuqori jag‘ premolyar yoki molyar tishlaridagi surunkali infeksiya o‘chog‘idan patologik jarayonning tarqalishi natijasida yuzaga keladigan asoratdir. Stomatologlar ma’lumotlariga ko‘ra, surunkali sinusit bilan kasallangan bemorlarning 12–50% ida odontogen gaymorit aniqlanadi. LOR shifokorlarning kuzatuvlariga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 2 dan 25% gacha o‘zgarib turadi, ulardan 41,2–77,2% holatlar ochiq (perforativ) shaklga to‘g‘ri keladi.

Odontogen gaymorit diagnostikasi murakkab bo‘lib, LOR va stomatologik xizmatlarning hamkorligini talab qiladi. Odontogen gaymoritni davolash majmuaviy bo‘lishi kerak va har doim infeksiya o‘chog‘ining sanitariyasini o‘z ichiga olishi lozim.

Surunkali odontogen gaymoritlarda konservativ davolash ko‘pincha natiyja bermaydi va jarrohlik aralashuvi talab qilinadi. Odontogen gaymoritning boshqa shakllariga qaraganda ekssudativ shakllarda konservativ muolaja samarali bo‘lishi mumkin. Konservativ davoda antibiotik tanlashda himoyalangan penisillinlar va nafas yo‘llari ftorxinolonlari tanlanadi. Bu mahalliy mikroflora va ularning sezuvchanligiga bog‘liq.

Odontogen gaymoritni konservativ davolashning natiyjaviyligini baholash maqsadida tadqiqot olib borildi. Tadqiqotda 32 bemor Respublika ixtisoslashtirilgan Otorinolaringologiya va Bosh - bo'yin kasalliklari ilmiy amaliy tibbiyot markazida olib borildi va unda bemorlarni 13 erkak va 19 ayol tashkil qildi, bemorlarning o'rtacha yoshi – 38 yoshni ko'rsatdi.

Tashxislash klinik, endoskopik va rentgen metodlariga asoslangan holda olib borildi. Shu bilan birga, barcha bemorlar stomatolog tomonidan ham tekshirildi.


Yallig'lanishga sabab bo'lgan tishlar orasida: I molyar – 19 holat, II molyar – 9 holat, II premolyar – 4 holatni tashkil qildi.

Ochiq (perforativ) shakl – 4 bemorda, yopiq shakl – 28 bemorda aniqlangan. Ekssudativ shakl – 9 bemorda uchradi.

Bemorlarning 19 nafariga operatsiya tavsiya etilgan, ammo 14 nafari rad etgan. 17 bemordan bakteriologik tahlil olingan. Unga ko'ra, aeroblar: Streptococcus spp., Staphylococcus aureus va boshqalar; anaeroblar – Prevotella spp., Peptostreptococcus spp. va boshqalar.

Davolash: antibakterial terapiya, puktsiya va dekongestantlar biln olib borildi. Infeksiya o'chog'i 3–4 kun ichida sanitariya qilindi. Davolash davomida antibiotiklardan asosiy guruh: amoksitsillin/sulbaktam olganlar; nazorat guruhi: amoksitsillin/klavulanat olganlardan tashkil topdi.

Natiyjalarga ko'ra, har ikkala guruhda 7-kungacha simptomlar ancha kamaygan, shu bilan bir qatorda sulbaktam olganlarda remissiya 8-kuni, boshqalarda – 9-kuni kuzatilgan (1-rasm).



1-rasm. Antibiotiklar bilan davolash natiyjasida remissiya kuzatilishi

Bunda sulbaktamning ustunliklari quyidagilardan iborat: pH o‘zgarishlariga chidamli, to‘qimalarga yaxshi kiradi, mushak ichiga yuborish mumkin, keng ta’sir doirasiga ega.

Surunkali odontogen gaymorit holatning oldini olish juda muhimdir.

Asosiy profilaktik chora-tadbirlar:

- Og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga amal qilish
- Tishlarni kuniga kamida ikki marta tozalash
- Tish ipidan va og'iz chayish vositalaridan foydalanish
- Tishlarni davolashda ehtiyotkorlik
- Tish ildizlarini chuqur burg'ulashda ehtiyot bo'lish
- Endodontik davolashni to'g'ri va sifatli o'tkazish
- Tish kasalliklarini erta aniqlash va davolash
- Karies, pulpit va periodontit kabi kasalliklarni vaqtida aniqlab davolash
- Har 6 oyda stomatologga profilaktik ko'rikdan o'tish
- Tish implantatsiyasi va protezlashda malakali mutaxassisga murojaat qilish
- Notog'ri qo'yilgan implantlar gaymor bo'shlig'iga zarar yetkazishi mumkin
- Immunitetni mustahkamlash
- To'g'ri ovqatlanish, sog'lom turmush tarzi va zarur bo‘lsa, vitaminlar qabul qilish
- Yuqori nafas yo'llari infektsiyalarini davolash
- Burun bitishi yoki surunkali rinit bo'lsa, LOR shifokoriga murojaat qilish

Xulosa: Tadqiqot davomida natiyjalar shuni ko‘rsatdi-ki, ssurunkali odontogen gaymoritni konservativ davolashda amoksitsillin/sulbaktam samarali vosita bo‘lib, boshlang‘ich terapiyada qo‘llanishi mumkin. Surunkali odontogen gaymoritning oldini olish — bu og'iz gigiyenasiga rioya qilish, tish kasalliklarini vaqtida aniqlab davolash va mutaxassislar tavsiyalariga amal qilishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. Kruchinskiy G.V., Filippenko V.I. Odontogennyy verkhnechelyustnoy sinusit [Odontogenic maxillary sinusitis]. Mn.: Vysheyshaya shkola, 167 p. (in Russian)
2. Red’ko D.I. Sovershenstvovaniye diagnostiki i lecheniya khronicheskikh gribkovykh i gribkovo-bakterial’nykh sinusitov: Avtoref. dis. … kand. med. nauk [Improving the diagnosis and treatment of chronic fungal and fungal-bacterial sinusitis]. Minsk, 2013, 22 p. (in Russian)
3. Timofeyev A.A. Osnovy chelyustno-litsevoy khirurgii [Fundamentals of maxillofacial surgery]. M.: MIA, 2017, 695 p. (in Russian)